

QUTURISH KASALLIGIGA LABORATORIYADA DIAGNOZ QO'YISH

Botirov Shohruh Juraqul o'g'li

Sanoqulov Dilshodbek Sayfullo o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali talabasi*

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idrisxo'ja o'g'li


*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali v.f.f.d., (PhD), ilmiy rahbar*

Annotatsiya: Quturish kasalligi bugungi kunda ham jahon sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu kasallik virusli etiologiyaga ega bo'lib, asosan hayvonlar orqali odamga yuqadi va klinik belgilari namoyon bo'lgach deyarli har doim o'lim bilan yakunlanadi. Shu sababli quturish kasalligini erta va aniq aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuda quturish kasalligiga laboratoriyada diagnostik qo'yishning zamonaviy va an'anaviy usullari tahlil qilingan. Xususan, immunoflyuorestsensiya reaksiyasi (IFR) "oltin standart" hisoblanib, miya to'qimalarida virus antigenini tezkor aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) yordamida virus RNKsini aniqlash, biologik sinovlar, gistopatologik tekshiruvlar orqali Negri tanachalarini aniqlash usullari yoritilgan. Zamonaviy laboratoriya diagnostika usullarining qo'llanilishi quturish kasalligini o'z vaqtida aniqlash, epidemik xavfni kamaytirish va profilaktik choralarni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Quturish kasalligi, quturish virusi, zoonoz infeksiya, laboratoriya diagnostikasi, immunoflyuorestsensiya reaksiyasi, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), Negri tanachalari, klinik belgilari, profilaktika, emlash, postekspozitsion profilaktika, epidemiologiya.

Mavzuning dolzarbligi: Quturish kasalligi insoniyat ucnun eng xavli yuqumli kasalliklardan biri bo'lib, hozirgi kunda ham ko'plab mamlakatlarda jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili minglab insonlar quturish kasalligi oqibatida hayotdan ko'z yumadi. Kasallikning asosiy xavfi shundaki, klinik belgilari namoyon bo'lgandan so'ng deyarli barcha holatlarda o'lim bilan yakunlanadi. Shu sababli quturishni erta aniqlash va aniq tashxis qo'yish nihoyatda muhimdir. O'zbekistonda ham muhim chora tadbirlar o'tkazilmoqda va qonunlar qabul qilinmoqda. Shular jumlasidan mana shunday qonunlar qabul qilingan. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat

budjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "[yo'l xaritasi](#)"da hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklariga qarshi vaktsinatsiya tadbirlarini o'tkazish hamda zamonaviy va shaffof mexanizmlar asosida moliyalashtirishni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin deyilgan. 2. O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining [43-moddasiga](#) muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun'iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarning ro'yxati, shuningdek, mazkur ro'yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Bu qonun qoidalar birinchi navbatda insonlar sog'ligini saqlashga qaratilgan.



Klinik belgilari: Quturish kasalligi yashirin (inkubatsion) davr va klinik bosqichlar orqali rivojlanadi. Klinik belgilari paydo bo'lgach kasallik juda tez va og'ir kechadi.

1. Inkubatsion davr. 10 kundan bir necha oy, ba'zan 1 yilgacha davom etishi mumkin, belgilar kuzatilmaydi, davomiyligi tishlangan joy, virus miqdori va nervlarga yaqinligiga bog'liq.

2. Boshlang'ich (prodromal) davr.

Umumiy holsizlik, bosh og'rig'i, ishtahaning pasayishi, tana haroratining ko'tarilishi, tishlangan joyda achishish, qichishish yoki og'riq, ruhiy bezovtalik, qo'rquv, asabiylik.

3. Qo'zg'alish davri.


Kuchli psixomotor qo'zg'alish, suvdan qo'rqish (gidrofobiya), havodan qo'rqish (aerofobiya), yutish mushaklarining spazmi, ko'p so'lak ajralishi, ovozni eshitganda yoki yorug'likda tutqanoq, tajovuzkorlik, bezovtalik.

4. Falajlik davri.

Mushaklarning bo'shashishi, qo'l-oyoq falaji, nafas olish mushaklarining falaji, yurak faoliyatining buzilishi, o'lim bilan yakunlanadi.

Laboratoriya diagnostikasi:

Quturish kasalligiga klinik belgilar asosida aniq diagnoz qo'yish qiyin bo'lgani sababli laboratoriya tekshiruvlari asosiy va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Laboratoriya diagnostikasi tirik bemorda ham, vafot etgan shaxslarda ham amalga oshiriladi.

**1. Tekshirish uchun olinadigan materiallar.**

Miya to'qimalari (asosan vafot etgan hayvon yoki odamdan), so'lak, miya-orqa miya suyuqligi, shilliq qavatdan surtma, teri biopsiyasi (ense sohasidan).

2. Immunoflyuorestsensiya reaksiyasi (IFR).

Quturish diagnostikasida "oltin standart" usul hisoblanadi, miya to'qimasida virus antigenini aniqlaydi, tezkor (bir necha soat ichida natija), yuqori sezgirlik va aniqlikka ega.

3. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR).

Quturish virusining RNKsini aniqlaydi, juda yuqori sezgirlikka ega, tirik bemorlarda erta bosqichda ham qo'llaniladi, zamonaviy va ishonchli usul

4. Gistopatologik tekshiruv.

Miya neyronlarida Negri tanachalarini aniqlashga asoslangan, sezgirligi pastroq, lekin tasdiqlovchi ahamiyatga ega.

5. Biologik sinov

Tekshirilayotgan materialni laboratoriya hayvonlariga (oq sichqonlar) yuqtirish orqali amalga oshiriladi. Natija olish uchun uzoq vaqt talab etiladi. Hozirda kam qo'llaniladi.

Kasalligini oldini olish: Quturish kasalligining oldini olish choralari kasallik tarqalishining oldini olish va inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Kasallikning oldini olish spetsifik va nospetsifik profilaktika choralari o'z ichiga oladi. Bu kasallikning davosi topilmagan.

1. Nospetsifik profilaktika.

Daydi va nazoratsiz hayvonlar sonini kamaytirish.

Uy hayvonlarini ro'yxatdan o'tkazish va nazorat qilish.

Aholi orasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni olib borish.

Hayvon tishlashi holatlarida zudlik bilan tibbiy muassasaga murojaat qilish.

Tishlangan joyni darhol sovun va oqava suv bilan 10–15 daqiqa yuvish.

2. Veterinariya choralari.

Uy hayvonlarini muntazam emlash.

Quturish aniqlangan hududlarda karantin joriy etish.

Kasallangan hayvonlarni yo'q qilish.

Epizootik nazoratni kuchaytirish.

Xulosa: Quturish kasalligi hozirgi kunda ham inson salomatligi uchun o'ta xavfli bo'lgan virusli yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallik asosan hayvonlar orqali yuqib, markaziy asab tizimini zararlaydi va klinik belgilari namoyon bo'lgandan so'ng deyarli barcha holatlarda o'lim bilan yakunlanadi. Shu sababli quturish kasalligini erta aniqlash, aniq diagnoz qo'yish va o'z vaqtida profilaktik choralarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Laboratoriya diagnostikasi quturish kasalligini aniqlashda yetakchi o'rin tutadi. Immunoflyuorestsensiya reaksiyasi va polimeraza zanjir reaksiyasi eng ishonchli va zamonaviy usullar bo'lib, virusni qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini beradi. Gistopatologik va biologik sinovlar esa qo'shimcha tasdiqlovchi ahamiyatga ega. Klinik belgilar bilan bir qatorda laboratoriya tekshiruvlarining uyg'un qo'llanilishi yakuniy diagnoz qo'yishda muhim rol o'ynaydi.

Quturish kasalligining oldini olishda kompleks profilaktika choralari, xususan hayvonlarni emlash, xavf guruhidagi shaxslarni himoyalash, aholi orasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va tishlangandan so'ng darhol tibbiy yordam ko'rsatish asosiy omil hisoblanadi. Umuman olganda, quturish kasalligiga qarshi kurashishda erta laboratoriya diagnostikasi va samarali profilaktika choralarining uzviyligi kasallikning tarqalishini kamaytirish va inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar.

1. G'ulomova J.D., Toshboyev T.H., Aliyeva M.R., Ochilov S.T. [maqola]
2. Saparov H.B., Bulkina I.G. Infekcion kasalliklar bilan bemorlar davolash va epidemiologiya asoslari. Toshkent: Ibn Sino (1990).
3. Vafqulov S.X., Xodiyev X.X., Boyjonov A.Q., Yormuhamedova M.K. Yuqumli kasalliklar fani bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand (2001).
4. Boyjonov A.Q. Yuqumli kasalliklar bo'yicha metodik tavsiyanoma. Toshkent (1991).
5. Isaqov M.M. Quturish kasalligi va uni oldini olish.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida hayvonlar quturish kasalligi epizootologiyasi bo'yicha avtoreferat (Zubaydov F.F.).

Foydalangan ilovalar.

www.eVetSites.com

www.besthorsesites.net

www.lex.uz

www.vetmed.uz

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
2. Nurmatovich, K. A., & Oglu, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.
3. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(15), 41-47.
4. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.
5. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).
6. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-О при химической профилактике колибактериоза цыплят.
7. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 9-13.
8. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RN VA TAMOYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.
9. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
10. Davlatov, R., Xu'jaxonov, S., & Berdiyev, X. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОФЛОСАНА В ХИМИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ КОЛИБАКТЕРИОЗА КУРИЦ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
11. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures For The Prevention Of Diseases Caused By Disorders Of Bee Nutrition And Feeding Conditions. *Academicia Globe*, 3(03), 5-8.
12. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(1), 1-4.
13. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").

14. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.
15. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. *Ученый XXI века*, (10 (81)), 12-14.
16. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 75-78.
17. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 247-252.
18. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
19. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 77-84.
22. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 32-39.
23. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 66-69.
24. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. *Scienceweb academic papers collection*.
25. Berdievich, D. R. (2023). PARRANDA ZOTLARI. ZOTLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 74-80.

26. Berdievich, D. R. (2023). BROYLER JO 'JALARI SAQLANADIGAN BINOLARNI TAYYORLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 68-73.
27. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). QO 'YLARDA PARAZITAR KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHINI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 241-250.
28. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). OTLARDA MANQA KASALLIGINI DAVOLASH VA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 251-260.
29. Murodjon Turg'un o'g, A., & Ergashevna, G. O. M. T. (2023). ASALARI KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Научный Фокус*, 1(1), 122-131.
30. HUDUDIDAGI, V. S. E. L. B., BO, A. S. U. S. M., BAHOLASH, Y., & G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA BOZOR HUDUDIDAGI ASAL SIFATINI UNDAGI SUV MIQDORI BO 'YICHA BAHOLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 46-48.
31. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 33-36.
32. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 23-30.
33. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 3-13.
34. Berdievich, D. R. (2023). PARAZITLARGA QARSHI KURASHISH CHORA-TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 14-22.
35. Шамсиддинович, Ф. О., & Эргашевна, Ф. М. (2023). МИКОТОКСИКОЗЛАР ВА УЛАРДАН АЖРАЛАДИГАН ТОКСИНЛАРНИНГ ҲАЙВОНЛАР ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 108-115.
36. Murodjon Turg'un o'g, A. (2023). RESULTS OF LABORATORY ANALYSIS OF MEAT SAMPLES SUSPECTED OF TUBERCULOSIS. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 95-100.
37. Ergashevna, G. O. M. T. (2023). TUBERKULYOZGA GUMON QILINGAN QORAMOLLARDAN OLINGAN SUT TARKIBIDAGI MIKROORGANIZMLARNI ANIQLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 101-107.